

TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK OQIBATLARINI QO‘LLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH

Abduraxmonova Noila

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro arbitraj va nizolarni hal qilish mutaxassisligi magistranti

NobelN1908@gmail.com

To‘lovga qobiliyatsizlik huquqiy instituti quyidagi usullar bilan iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga ijobiy ta‘sir qilishi mumkin:

- samarasiz, past rentabelli, istiqbolsiz, moliyaviy inqiroz holatidagi korxonalarning faoliyatini tugatish;
- iqtisodiy tang ahvolga tushib qolgan, shuningdek, ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etadigan qarzдорlarga turli moliyaviy yordam mexanizmlarni shakllantirish orqali o‘z faoliyatini davom ettirish va to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatini berish.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar – qarzдорning shartnomaviy yoki ommaviy-huquqiy to‘lov majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga qodir emasligi holatining sud tomonidan e‘tirof etilishi bilan bog‘liq jarayonlar. Sud tomonidan ishlar vakolatli shaxslarning arizalari asosida qo‘zg‘atiladi, ish qo‘zg‘atish bilan birga qarzдорga nisbatan qonunda belgilangan taomillardan biri qo‘llaniladi. Har bir taomil qarzдорning tashkiliy-huquqiy shakliga, moliyaviy ahvoliga asosan joriy etiladi. Biroq ular umumiy ikki xil maqsadga: qarzдорni sog‘lomlashtirish yoki faoliyatini tugatishga yo‘naltiriladi.

Sog‘lomlashtirish taomillari – qarzдорning to‘lov qobiliyatini tiklash va moliyaviy tang ahvoldan chiqib ketish imkoniyati mavjud bo‘lganda sud tomonidan kreditorlar yig‘ilishi qaroriga, yoki boshqa vakolatli shaxslarning iltimosnomasiga ko‘ra qo‘llaniladigan taomillar. Yuridik shaxslarga qo‘llaniladigan sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari, jismoniy shaxslarning qarzlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish taomili, yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan sud tomonidan tasdiqlanadigan reja

asosida qarzlarni so‘ndirish imkoniyatining taqdim etilishi reabilitatsion tartib-taomillar sirasiga kiradi.

Tugatishga doir ish yuritish taomili qarzdor mutlaq yoki doimiy to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lmaganda, o‘z nomi bilan qarzdor faoliyatini tugatishni, uni rasman sud tomonidan to‘lovga qobiliyatsiz deb e‘tirof etishni nazarda tutadi va natijada qarzdorning mavjud mol-mulklari kreditorlar talablarini qanoatlantirish maqsadida taqsimlanishiga olib keladi.

Yangi tahrirdagi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida” gi qonunda to‘lovga qobiliyatsizlik va bankrotlik tushunchalari o‘zaro farqlangan va ularga aniq ta‘rif berilgan, sohadagi davlat organlarining vakolatlari aniq va batafsil bayon etilgan. Shu jumladan, sud tizimining to‘lovga qobiliyatsizlikka doir ishlarni hal etishi uchun izchil huquqiy mexanizm yaratilgan. Ishni ko‘rish asoslari, muddatlari, qo‘llaniladigan tartib-taomillar, bu jarayonlarda amalga oshiriladigan ishlar, har bir toifadagi qarzdorga nisbatan ish yuritishning alohida xususiyatlari, sud tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar batafsil bayon etilgan va natijada, huquqni qo‘llash amaliyotida bo‘shliqlarga o‘rin qoldirilmagan. Biroq sud tomonidan huquqni qo‘llash amaliyotida qonundan istisno holatlar ham yuzaga kelmoqda. Ma‘lumki, tugatishga doir ish yuritish muddati 12 oydan oshishi mumkin emas, va bu muddat 3 oyga uzaytirilishi mumkin, xolos. Ammo sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, tugatish boshqaruchilarining iltimosnomasiga asosan banklar va boshqa tashkilotlardan qarzdorning hisobraqamlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi natijasida qarzdorning aktivlari qiymatini aniqlash imkoniyati bo‘lmayotganligi sababli tugatish ishlarini yakunlash muddati sud tomonidan bir necha bor uzaytirilmoqda, hatto 2 yildan ortiq muddat davomida tugatish ishlari yakunlanmay kelayotgan ishlar mavjud.

Qonunchilikni chuqur tahlil qilgan holda, tizimni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilar taklif etildi:

Subyektning umumiy qarzlari miqdorini aniqlashda AQSh huquqi tizimidagidek: **moliyaviy jarimalar va sanksiyalar miqdori** qo‘shib hisoblanmasligi kerak. Negaki bu qarzdorning ahvoli yanada og‘irlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois “To‘lovga

qobiliyatsizlik to‘g‘risida” gi qonunning 18-moddasini quyidagicha bayon qilish taklif qilinadi: “Kreditorlar talablari miqdorini shakllantirishda moliyaviy jarimalar va sanksiyalarga oid talablar (kompensatsiya, neustoyka, jarima, boy berilgan foyda, foiz to‘lovlari va boshqalar) kiritilmaydi. Bunday talablar qarzdor moliyaviy ahvoli tiklangandan so‘ng amalga oshiriladi”.

AQSh huquq tizimida mavjud bo‘lgan, reabilitatsion taomillardan biri qo‘llanilganda, sog‘lomlashtirish muddati davomida qarzdorga nisbatan ayrim **soliq imtiyozlari** berish tartibi ishlab chiqilishi tiklash taomillarining yanada tez amalga oshirilishiga yordam beradi.

Zamonaviy biznesning murakkabligi, xalqaro savdo va investitsiya munosabatlarining jadal rivojlanib borayotganligini inobatga olib, turli davlatlar rezidentlari hisoblangan tadbirkorlik subyektlari, chet el sarmoyasi ishtirokidagi yirik korporatsiyalarning moliyaviy inqirozlik holatini alohida – **transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik** qoidalarini asosida ko‘rish maqsadida UNCITRAL Model qonunini o‘rganib chiqqan holda “Transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarini sudga ko‘rish tartibi to‘g‘risida”gi nizom loyihasini ishlab chiqish va bu bo‘yicha “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida” gi qonunga qo‘shimchalar kiritish zarur.

Germaniya qonunchiligida mavjud **to‘lovga qobiliyatsizlikka qarshi sug‘urta** qilish amaliyotini joriy etish zarur. Bu qarzdor va kreditor huquq va manfaatlarining yana bir kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Sud amaliyotida qarzdor korxona rahbari sud boshqaruvchisiga korxona moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, qimmatli boyliklar yoki muhr-shtamlarni o‘z vaqtida topshirmaganlik holatlari tez-tez uchray turadi. Bu kabi sud boshqaruvchisining to‘liq potensialda ish olib borishiga to‘sqinlik qiladigan xatti-harakatlar sodir etilganida chet davlat qonunlarida bo‘lgani kabi sud tomonidan qarzdorning rahbariga ma‘muriy va jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llash amaliyotini tatbiq etish lozim.

Sud amaliyotida sud boshqaruvchilari tomonidan bankrotlik taomillari davomida amalga oshirilgan ishlar yakuni bo‘yicha topshiriladigan hisobotlar sifati

qoniqarsizligiga guvoh bo‘lish mumkin. Sud boshqaruvchilari to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda qarzdor mulkini boshqarish va qarzdor holatini moliyaviy tahlil qilishda bevosita vakolatli shaxs bo‘lganligi uchun ularning mas‘uliyatini oshirish va **sud tomonidan ularning faoliyatini nazorat qilish** bo‘yicha qonunga qo‘shimchalar kiritish zarur. Bundan tashqari qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun boshqa davlat organlari, jumladan, prokuratura, IIV organlari, banklar, soliq xizmatlaridan tegishli hujjatlarni olish sud boshqaruvchilarining vazifasiga kiradi. Ko‘p holatlarda ushbu tashkilotlar zarur ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etmaydi va bu ish yuritish muddatining cho‘zilib ketishiga olib keladi. Shu sababli to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarini ko‘rib chiqishda qarzdorga oid ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etmagan davlat organlarining xodimlariga nisbatan ma‘muriy jazo choralari ko‘rilishi to‘g‘risida alohida norma belgilanishi zarur.

Buyuk Britaniya huquq tizimida 2 yildan 15 yilgacha **bankrotlik oqibatlari** qo‘llaniladi. Jumladan, bankrot deb e‘tirof etilgan shaxs, yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishda, kompaniya direktori, fond jamg‘armalarida boshqaruvchi menejer sifatida faoliyat yuritishda va shu kabi boshqa holatlarda cheklovlar belgilanadi, bunday faoliyat bilan shug‘ullanishga faqat sud qarori asosida ruxsat beriladi. Bankrotlik cheklovlari – bu, jamiyat manfaatlarini himoya qilish va yangi faoliyat boshlashga imkon beruvchi qonuniy cheklovlardir. Milliy qonunchiligimizda ham bankrotlik oqibatlarini qo‘llash biznesni boshlash uchun to‘siq emas, balki jamiyatni va iqtisodiyotni nosog‘lom sxemalardan himoya qilishga xizmat qiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik huquqi iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan kuchli mexanizm bo‘lib xizmat qila oladi. Qarzdor va kreditor o‘rtasidagi to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlari odatda mustaqil va ishonchli uchinchi shaxs ishtirokini talab qiladi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarning sud tomonidan hal etilishi, avvalo, to‘lovga layoqatsiz subyektlarga majvud kapitalini likvidatsiya qilish orqali to‘lov majburiyatlarini ma‘lum darajada bajarish va yangidan faoliyat boshlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, samarali sud tizimi moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan, ammo faoliyatini davom ettirish potensialiga ega bo‘lgan tadbirkorlik

subyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish, ularning faoliyatini sog‘lomlashtirishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, sud kreditorlar manfaatlarining himoya qilinishini va ularning qarzdorga nisbatan talablari qanoatlantirilishini kafolatlaydi. To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari sud tomonidan ko‘rib chiqilishining yana bir muhim vazifasi shundan iboratki, to‘lovga qobiliyatsizlik ishlarining oqilona, adolatli va samarali hal etilishi ishsizlik darajasining oshib ketmasligini, iqtisodiy va mulkchilik munosabatlarining barqarorligini ta‘minlaydi.